

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI**

M.A. RYABSEV, U.B. XAKIMOV

# **WEB DIZAYN SAN'ATI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lism vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlarining 3210900 – «Dizayn», 3210902 – «Reklama bo'yicha mutaxassis» yo'nalishi o'quchilar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«Faylasuflar» nashriyoti  
Toshkent – 2014

**UO‘K: 72.012(075)**

**KBK: 32.973.202**

**P 97**

**Ryabsev M.A.**

**P 97 Web dizayn san’ati** o‘quv qo‘llanma: kasb-hunar kollejlari uchun / M.A. Ryabsev, U.B. Xakimov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2014. – 112 b.

**UO‘K: 72.012(075)**

**KBK: 32.973.202**

**30.18**

Web dizayn fani bo‘yicha berilgan ushbu o‘quv qo‘llanma o‘quv das-turidagi «Web dizayn san’ati» sifatidagi fan bo‘lib, kollej o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

Bu qo‘llanma web dizayn negizi bo‘yicha sistematik materiallarni o‘z ichiga olgan bo‘lib o‘quvchilarga saytlarni yaratishda mustaqil ishlarni yengillashtirishga va sistemalashtirishga imkon beradi. O‘quv qo‘llanmada quyidagi tushunchalar ochib beriladi: teg, atribut, jo‘natma, shakl, validatsiya, lokal, server va ko‘pgina boshqa sayt tuzilish dunyosiga ruxsat beriladigan bazalar lahzasi.

O‘quv qo‘llanmada umuman saytning qanday turlari bo‘ladi, u qan-day qilib yaratiladi va dunyodagi yetakchi saytlarning dizaynerlari qaysi biridan foydalanishini batafsil va misollarda tushuntirib beriladi.

Berilgan qo‘llanma o‘quvchilarga standart HTML saytning yaratilishi, Joomla va Wordpress harakatida yaratilgan sayt yoki PHP+MySQL texnologiyasi yaratilishini tushuntirish asosiy fundamenti bo‘lib, boshqa qiyin saytga o‘tishda qo‘llashning imkonini beradi.

### **Taqrizchilar:**

**O.S. Kasimov** – K. Behzod nomli Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘quv ishlari prorektori,

**M.S. Salaxidinov** – A.A. Xo‘jayev nomidagi Respublika Dizayn kolleji o‘quv ishlab chiqarish ishlari bo‘yicha direktor o‘ribbosari.

## KIRISH

Hozirgi vaqtida, internetda 100 mln dan ortiq domen nomlari ishlataladi. Ko'pgina kompaniyalar taqdim qilgan hamma tez kirish imkoniyatiga ega bo'lgan abonent tarmoqlari, jismoniy modemlar va uncha qimmat bo'lman web – xostinglarda o'n millionlab foydalanuvchilar o'z shaxsiy web saytlarini yaratmoqdalar. Aynan hozirda 500 mln dan ortiq odamlarning onlayndan foydalanadigan vaqtida (buning ustiga bu son oyiga taxminan 7% tezligida oshmoqda), web ishlab chiqaruvchilariga foydalanuvchilarning diqqatini web olamida cheksiz saqlab qolish uchun jalb qilib, ushlab qolish uchun yangi texnologiya yo'llarini izlash to'g'ri kelyapti.

Bu qo'llanmada web texnologiyalar haqida va ularni qanday qilib birdaniga o'z web varag'ida qo'llash mumkinligi haqida gapiriladi. Avval sizlar texnologiya prinsiplari bilan tanishasiz va ularni qanday qilib yaxshiroq shaxsiy web varag'ingizda ishlov berishingiz mumkinligi bilan tanishib olasiz. So'ngra siz ulardan faqat nusxa olib va o'zingizning web varag'ingizda kodga qo'yib, tayyor qarorlardan foydalansangiz bo'ladi. Va nihoyat, siz web saytning butkul potensial ochish imkoniyatiga ega bo'lgan yashirin sozlanma (настройка) va texnologiyalarni ko'rasiz.

Butunjahon O'rgimchak to'rida har kuni web varaq ishi bilan millionlab foydalanuvchilar va professional web ishlovchilar to'qnashadilar. Ular ishni osonlashtirish uchun ko'pgina web ishlovchilar dasturi va web ishlov vositasi yordamiga tayandilar. Yangi web texnologiyalardan to'liq hajmda foydalanish va web saytni kerakli ishlab chiqarish darajasida ushlab turishi uchun ma'lum bir davrda ishlab chiqaruvchilar albatta HTML – deskriptorlarini, atributlarini kaskad jadvali orqali qoida uslublarini, JavaScrip tilini, faol server varaqlarini, RNR va ko'pgina narsalarni chuqur bilishlari kerak.

Saytdagi weblarning sanog'i ko'pligiga qaramay, saytdagi tezlikni xohlamagan, xavfsiz va xizmat ko'rsatishi oson bo'lman web ishlovchini topish amri maholdir. Bundan tashqari, saytlarga tashrif buyuradigan foydalanuvchilar ko'ngil ochish va muhim saqlanishlar bilangina cheklanib qolmay, ularning tez-

da to‘lishini xohlaydilar. Ko‘pgina foydalanuvchilar xavfsiz deb o‘zini ko‘rsatgan saytlarni haqiqatan ham shunaqa deb taxmin qiladilar.

Web saytda joylashtirilgan ma’lumotdan tashqari foydalanuvchilar undagi sifat, tezlik va xavfsizlikni kutishadi. Bu kitobda yuzlab usullar orqali web ishlovchilar o‘zi saytlarini ishlab chiqarishini ko‘tarishni, ularning xavfsizligini, ma’lumot sifatini va xizmatining osonlashtirilishi ko‘rsatiladi.

Bu o‘quv qo‘llanmadagi ko‘rsatilgan vazifalarni bajarish uchun tajribaga ega bo‘lgan dasturchi yoki ma’muriyat aloqachisi bo‘lishingiz shart emas. Har bir amaliyoti ketma-ket instruksiyalar bajarilishining oddiy usullarini o‘z ichiga oladi, shuning bilan birga qarorlariningizdan ham web varaqda nusxa olib qo‘yishingiz mumkin. Bu o‘quv qo‘llanmaning boblarida siz quyidagilarni topasiz:

- o‘zingizning birinchi web saytingizni yaratishda HTML til negizini;
- HTML jadvali orqali web varag‘idagi xabarni tashkil etish, matn va grafikani tartibga solish;
- web varag‘i ichida to‘liq me’yorda matn formatini boshqarish, uni osonlashtirish va kelajakda uni yangilash uchun qanday qilib kaskad jadvali uslubini qo‘llash;
- o‘zingizning web varag‘ingizda grafikani natijali qo‘llashga imkon beradigan, shuning bilan birga tasvirlarni yuklashning davomiyligini qisqartirish usullari;
- va boshqalar.

### Saytlar qanday bo‘ladi?

Saytlar har xil bo‘ladi. Shartli ravishda kommersiya va nokommersiyaga bo‘linadi. Shartli bo‘lgani, xohlagan nokommersiya sayti, xohlagan vaqtida kommersiya razryadiga o‘tishi mumkin. Shuning bilan birga saytlarni maqsad bilan yaratilishiga qarab tasniflansa bo‘ladi. Mana shunday tasnifni biz ko‘rib o‘tamiz.

#### *Sayt – tashrif*

Bunday saytning maqsadi firma va uning xizmati haqidagi ma’lumot tasavvuriga ega bo‘lish. Haqiqiy hayotda biz tashriflar bilan almashamiz, lekin ular bizga firmaning nomi va bizi-

ga bergen insonning mansabi haqida ma'lumot berishi mumkin. Agarda tashrif qog'ozida saytning manzili berilsa, sizning potensial sheringingiz yoki xaridoringiz sizning kompaniyangiz haqida hamda uni qiziqtiruvchi ma'lumotlarni oladi. Aynan shunday ma'lumotlar sayt – tashrif qog'ozlarida joylashtirila, ya'ni firma tarixi, faoliyat turlari, xizmati va hokazolarni joylashtirish mumkin.

Bunday saytlar odatda 5–15 gacha varaqdan iborat bo'lib, qat-tiq dizayn bilan farqlanadi va, albatta, kompaniyaning logotipi qatnashadi. Shuningdek, domen nomini tanlash muhim bo'lib, u firmaning asosiy faol turini namoyon qilishi va u qisqa hamda tezda esda qoluvchi bo'lishi kerak.

### ***Yangilik sayti***

Aslida bu ko'p qatlamlı saytdır. Shartli ravishda ularni ikki-ta katta guruhga bo'lsa bo'ladi. Birinchi guruh saytiga siyosat, iqtisod, shov-shuvlar, o'yinlar, musiqa, vaqtichog'liklar va h.k. bag'ishlangan mavzular kiradi.

Ikkinci guruh saytiga biron-bir mamlakatga, region, shahar va h.k. bag'ishlangan mavzular kiradi. Resurs mavzusi bo'yicha eng so'nggi yangiliklar, hamisha to'lish ehtiyoji bunday saytlarni birlashtirib turadi.

***Xususiyatlari:*** bunday saytlar sifatli va qiziq kontentlarni (maz-munni), dizaynga muvofiq tez-tez yangilanishni (rozi bo'ling-ki, iqtisodga bag'ishlangan sayt musiqaga bag'ishlangan saytga o'xshab bezatilmaydi) shuning bilan birga har xil texnologiyalarning foydalanuvchilari uchun qulay va qiziqarli ishlarining hozir bo'lishini talab qiladi (forumlar, chatlar, savol-javoblar, roliklar va animatsiyalar).

### ***Korporativ sayt***

Bu sayt guruhida ikkilamchi rol o'ynaydi. Bir tarafдан Internetda (sayt – tashrif sifatida) vakil, boshqa tarafдан – firma xizmatchisi, sherik va mijoz o'rtaсидagi axborot almashish va mulo-qot vositasi.

***Xususiyatlari:*** chegaralangan uslub. Kompaniya logotipi, katta hajm, xizmatchilar uchun yopiq bo'limlar, sherik va mijozlar uchun bo'limlar, kontinent dinamik shakllanish imkoniyati

(axborotning zamonaviy yangilanishi uchun baza ma'lumotlarini qo'llash), qayta aloqa shakllari va h.k.

### ***Mahsulotning ilgarilab ketishi yoki xizmati uchun sayt***

Bu saytlar prezentatsiyasi. Ular biron-bir yangi mahsulot yoki xizmat haqida, aniqrog'i ularni tijorat qilishga undaydi. Qoidaga binoan, ular mahsulot yoki xizmatning chiroysi rasmlari va afzallik tomonlarini obdan tavsiflab beradilar.

*Xususiyatlari:* bunday saytlar 1–3 betdan iborat bo'ladi. «Sotildigan matn» va buyurtma shaklidagi chiroysi dizaynga ega bo'ladi. Ko'pincha video yoki flash rolklarda, ijobiy baholangan holda uzatilib boradi.

### ***Sayt katalog***

Qoidaga binoan, bunday saytlar mahsulot ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish firmalariga kerak. Masalan: gulqog'oz (oboy) ishlab chiqaradigan fabrika sayt — katalog qilib, unda hamma turdag'i gulqog'ozlarning rasmlarini joylashtirishadi, unga gulqog'ozlarning narxi, tavsifi va har xil ko'rinishdagi interyerlari ko'rsatiladi.

*Xususiyatlari:* bunday saytlar ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: mahsulot rasmi, ularning tavsifi, narxi va h.k.

### ***Internet magazin***

Bu saytlar nafaqat mahsulotning rasmi, tavsifi va narxini beribgina qolmay, online buyurtma qabul vositasiga ham ega. Shuning bilan birga sayt kataloglardan farqli ravishda ular bu yerda umuman alohida bo'limlarda, har xil mahsulotlarni taqdim etishi mumkin.

*Xususiyatlari:* do'stona interfeys, buyurtma qabul qilish online vositasida, to'lash online imkoniyati (hamisha ham emas). Qoidaga binoan, foydalanuvchi mahsulotlar tugmachasinini bosishi kerak, qolgan hammasi uning o'rniga bajariladi (hisoblaydi, joylashtiradi va tashakkur aytadi).

### ***Internet portal***

Bu mega saytlar: katta hajmli, har xil axborotlarga to'ldirilgan va katta miqdorda xizmatlarni taklif etuvchi. Ularning yaratilishiiga juda ko'p vaqt talab qilinadi, shuning bilan birga ishlab chiqaruvchilarning butun komandasi kerak bo'ladi.

*Xususiyatlari:* loyihaning masshtabliligi. Qolgani esa xuddi boshqa saytlarga o‘xshash.

### ***Blog***


Bu alohida sayt turi. Har xil nom bilan atash mumkin: uy sahifasi, blog jurnal. Lekin ma’no jihatdan – shu saytdir. Farqi shundaki, u aniq insonga va uning qiziqishlariga bag‘ishlangan. Umuman aytganda, blogging bu gaplashish uchun alohida suhbat.

### **Saytning umumiy tuzilishi**

Saytning tuzilishini rejalashtirganda bir nechta assosiy narsalar ni albatta o‘ylab ko‘rish kerak: katalog tuzilishi, navigatsiya tuzilishi, sayt zastavkasining zarurligini.


### ***Katalog tuzilishi***

Eng avvalo sizning loyihangiz ichidagilarni tartibga solish kerak. Hamma rasmlarni bitta papkaga ish fayllarini boshqasiga joylashtiring. Sahifalarning o‘zini ham bo‘lsa bo‘ladi (masalan, bo‘limlarga). Shunday qilsangiz, o‘zingizga oson bo‘ladi. Buning uchun kelajakdagi saytingizning tuzilishini aniqlashtirib olishingiz kerak. Bir necha assosiy tuzilishlar mavjud:




- chiziqli – betlar berilgan tartibda joylashtirilgan. Bir betdan ikkinchi betga o‘tish qat’iy teglangan. Bunday tuzilish oson va taribi bilan o‘qishga asoslangan. Betlarni berilgan tartibda joylashtirishda, amin bo‘ling-ki, foydalanuvchi kerakli ma’lumotlarning birortasini chetda qoldirmaydi:

- *ierarxik* – betlar toifaga va toifa bo‘lakchalariga bo‘lingan. Bunday tuzilish juda ham qulay:



- *erkin* – betlar bemalol tartibda joylashgan. Bunday tuzilish faqat uchta katta bo‘lмаган saytlar uchun:



Fayl nomlari haqida bir necha so‘zlar: ular harflardan, siz bergen ramzlardan iborat bo‘lib, bosh harflarga ega bo‘lishi shart emas.

### ***Navigatsiya tuzilishi***

Bu resursni rejalashtirishda eng asosiy qism bo‘lib, saytdagi axborotga kirishi oddiy va tushunarli bo‘lishi kerak. Foydalanuvchi xohlagan vaqtida kerakli savollarga javob berishi kerak:

1. Men qayerda turibman?
2. Qayerga borishim kerak?
3. Qanday qilib u yerga borsa bo'ladi?
4. Orqaga qanday qaytsa bo'ladi?

Bunday masalalarga javob topish uchun har xil variantlardan foydalaniлади. Masalan, qanday qilib «menyu» sahifasidan foydalanuvchini topish mumkin va menu o'zini qanday qilib hamma sayt sahifalarida ko'rinarli qilishi mumkin.

Yana shu bilan birga navigatsiya kalitlarini ham qilish mumkin, ya'ni har bir sahifada sxema bo'yicha shu sahifaga to'liq yo'lni ko'rsatish: bosh bet – bo'lim nomi – sahifa nomi.

Umuman olganda, 3 klik qoidaga rioya qilish kerak, chunki foydalanuvchi saytning xohlagan sahifasiga o'tishda kamida 3 klikda yetib borishi kerak.

#### ***Navigatsiyaning asosiy sistemalari:***

- *Navigatsiyaning matnli sistemasi* – eng ko'p tarqalgan turlaridan biri. Aytish kerak-ki, boshqa navigatsiya sistemalaridan foydalangan taqdiringizda ham navigatsiya matni qatnashib turishi kerak. Umuman aytganda, bunday navigatsiya matnli jo'natmani har xil usullar bilan bezatishni aks ettiradi.

Gorizontal va vertikal menyularga bo'linadi. Vertikal har bir varaqning o'ng yoki chap tomonida joylashadi. Gorizontal menyu – sayt shapkasingin tagida joylashgan. Qulaylikni yaratishda har bir sahifaning tagida gorizontal menyuni nusxa qilishni maslahat beriladi.

- *Tugmalar (knopki)* – chastota bo'yicha ishlatish ikkinchi navigatsiya elementlari bo'lib keladi. Tugmalar har xil o'lcham, shakl, rang va uslubda bo'lishi mumkin. Ularni ishlatishda har bir voqeani tahlil qiluvchi (masalan, JavaScript)ga ular qo'shilishi kerak bo'ladi va shunda har bir voqeani tugmani bosishda yoki bo'lmasa sichqonchani boshqarishda tavsiflab beradi.

Eng optimal qarorlardan biri: tugma turini qoldirish (fonda), matnni esa undagi jo'natma turida bezatish kerak. Xulosa shuki, CSS vositalari bilan bunga erishish qiyin emas.

- *Navigatsiya xaritalari.* Bunday kirishishda bitta tasvir olinadi va ularning har xil sohalariga jo'natma berkitiladi. Eng keng tarqalgan misollardan biri bu jahon turistik xaritasi, tugmani bosa-

siz, qaysi mamlakat bo‘lishidan qat’i nazar va shu mamlakatga bag‘ishlangan sahifaga tushasiz. Sahifaning tagida uncha ko‘zga ko‘rinmaydigan gorizontal menyuda xaritani albatta nusxa qilish kerak. Bo‘lmasa, arzimagan sabablar bilan foydalanuvchi hech qayerga kirolmasligi mumkin.

Masalan:

**главная**

**оптимизируем сайт**

**раскручиваем сайт**

### ***Sayt zastavkalari***

Siz balki bosh sahifa o‘rniga saytda zastavkalarni uchratgansiz. Bu odatda ovozli katta surat yoki videorolikdir. Bunday sahifalar diqqatni o‘ziga tortadi. Bunday holatlarga hammaning munosabati har xildir: birlari buni qo‘llab-quvvatlaydilar, boshqalarga bu yoqmaydi.

Shuning uchun saytning zastavkasini qiladigan bo‘lsangiz, yuklamani o‘tkazib yuborishni yoki roliklarni ko‘rish xohishi bo‘lmasanlarga bu funksiyani tadbiq etishni unutmang.

### ***Saytning asosiy sahifasi***

Odatda bu foydalanuvchi tushadigan birinchi sahifa. Shuning uchun ba’zi bir shartlarni qoniqtirishi kerak:

- bosh sahifa saytning tematikasini aks ettirishi kerak;
- u qiziqarli bo‘lishi kerak, sababi foydalanuvchida saytning keyingi sahifalariga kirish xohishi uyg‘onishi kerak;
- iloji bo‘lsa, sayt bo‘yicha qidiruv funksiyasini joylashtirish kerak;

- unda axborotni yangilab turadigan bo‘limlar bo‘lsin: masalan, yangiliklar, aksiya, maslahat kuni;
- qayta aloqa usuli mavjud bo‘lishi kerak (e-mail, telefon, manzil);
- bosh sahifani boshqa sahifadan sayt umumiy uslubiga javob beradigan qiling.

### ***Saytning boshqa sahifalari***

Saytning hamma sahifalar tashqi turi butun bir uslubda bo‘lishi kerak. Ularda resursning nomi va bosh sahifaga jo‘natmasi ko‘rsatilishi kerak. Har bir sahifa o‘ziga xos maftunkor, ya’ni kerakli ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Bunda bir nechta kerakli daqiqalarni hisobga olganda:

1. Sahifaning uzunligini kuzatish kerak. Agarda u 2,5 ekranidan katta bo‘lsa, uni ikki sahifaga bo‘lish kerak;
2. Matnni xat boshilarga bo‘lish kerak, ortga va maydon. Matnni sarlavha va sarlavhachalarga ajrating. Shunday qiling-ki u tez va oson qabul qilinishi kerak;
3. Matnni rasm va grafika bilan ta’minlang, faqat bachkana bo‘lib ketmasin va hammasi dalili bilan bo‘lsin.

## **HTML – HUJJATLARNING TO‘G‘RI TUZILISHI**

Butunjahon To‘ri – World Wide Web (WWW) web sahifadan iborat bo‘lib, gipermatn markirovka tili yordamida yaratiladi.

HTML (Hyper Text Markup Language). Aslida ko‘pchilik dasturlash haqida mana shu tilda gaplashishadi, lekin HTML an’anaviy tushunchada dasturlash tili hisoblanmaydi. HTML hujjatning belgi tilidir. HTML hujjatining ishlanmasida muharir qizil qalam yordamida qanday qilsa, hujjat matni shunday belgilanadi. Bu teglar hujjatda bo‘lgan axborotning ko‘rsatib berish shakli uchun xizmat qiladi.

HTML hujjatlarining maxsus dasturini tomosha qilishni, ko‘pincha brauzer deb ataydilar va u HTML tili qoidasiga binoan teglanib, fayllarni interpretatsiyasi hamda foydalanuvchining kompyuter ekranida berilgan ma’lumotning aks ettirish va web sahifa ko‘rinishda formatlanishi uchun xizmat qiladi. Har xil kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan katta miqdorda brauzer dasturlari mavjud.

### **Brauzerlarning xilma-xilligi**

HTML tasviri va ishlov berish standarti mavjudligiga qaramasdan har xil brauzerlar bitta betni har xil ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari brauzer ishlab chiqaruvchilari boshqa brauzerlar qo’llab-quvvatlamagan holda o‘zlarining elementlarini ushlab turishga moslashtirishadi.

Ishlab chiqaruvchilar bu muammoga har xil munosabatda bo‘ladilar. Bir xillari sahifani keng tarqalgan brauzerlar yordamida yaratish mumkin desalar, boshqalari esa sahifaning kodi W3C konsorsium standartiga maksimal yaqin bo‘lish kerak deydilar. Uchinchilari esa eng yangi texnologiyalardan foydalanish tarafidorlari.

Universal qarorga hali kelinmadi. Faqatgina ba’zi bir yo‘l-yo‘riqlar berilishi mumkin:

- Internet Explorer, Mozilla, Chrome va Operada minimum o‘z sahifasini albatta test qilish kerak. Hozirgi kunda bu eng keng tarqalgan brauzerlar. Ularda sizning sahifangiz maksimal bir xil ko‘rinishga ega bo‘lishiga harakat qiling.

- Yangi texnologiyalarni qo'llaganda, oxirgi PK namunasidan foydalanishga kelib turuvchilarni to'lqinlantirasizlar. Brauzerlar uchun plagenlarni o'rnatish hammaning qo'lidan kelavermaydi va 95% foydalanuvchilar bularni qilishni xohlamaydilar. Shuning uchun bu texnologiyalarni sizning auditoriyangizning ko'pchilik qismi oxirgi dastur ta'minlash nazariyasi bilan foydalansagina bundan foydalansangiz bo'ladi.
- Kross – platforma sahifalarini ishlab chiqarishda W3C konsorsium standartlariga suyanishga harakat qiling. To'g'ri ba'zi bir web texnologiyalardan voz kechishga to'g'ri keladi, ammo maksimal auditoriya keluvchilariga ega bo'lasiz.

Zamonaviy brauzerlar katta imkoniyatlarga ega, ammo asosan, HTML qoidasiga binoan teglangandek, hujjatlarning interpretatsiyasi ular uchun asosiy bo'lib keladi.

### **Teg tushunchasi**

**Teg** – nima u? HTML element, brauzerga ko'rsatgan holda rasm, animatsiya va matnning web sahifasining qayerida joylashishi, matnni qanday – katta, qalin, kichkina, kursiv bilan yozilishi, qayerdan yangi satrni boshlab, qayerdan tugashini ko'rsatib beradi.

HTML tili teglari ramzlar bilan ajraladi: chegaralovchilar (<b>), bunda tegning identifikatori (nomi) parametri yoziлади (bizning misolimizda bu b). Bu qoidaning yagona inkori bu qiyinroq chegaralanuvchi (<!--va--> tegi izohlaridir. Teglar nomini va ularning parametrini xohlagan registrda yozib olish mumkin. HTML teglarining ko'pi juft bo'lib qo'llaniladi, ya'ni ochuvchi teg va yopuvchi teglar HTML qoidasiga binoan yopiq teglar singari yozib olinadi, teg nomidan oldin faqat ramzi bilan juftli teglarning yagona prinsipial farqi shundaki, yopiq teglar parametrlarni qo'llamaydilar.

Asosan, hamma teglar juftli, ya'ni biri ochuvchi <>, boshqa si yopuvchi </>. Bunday juftlik teglar **konteyner** deyiladi. Uning o'rtasidagi joylashgan boshqa hamma narsalar konteyner ma'lumotdir. Teglar harakati faqat ularning ichidagi narsalarga qo'llaniladi. Ba'zida tugallangan tegni tushirish mumkin.

Ba’zida yakka teglar ham bo‘lib turadi, ular yopishni talab qilmaydi. Bunday teglar shunchaki ma’lum harakatni bajaradi, masalan, satrni tarjima qilish yoki rasmni qo‘yish.

Teglar interpretatsiyasining brauzerlar bilan umumiyligini qoidasi mavjud. Dastrulash tilidan farqli o‘laroq HTML tegning to‘g‘ri yozilmagan yozuviga e’tibor berishi kerak emas. To‘g‘ri yozilmagan teg yoki uning parametri brauzer orqali nazarga olinadi. Bu brauzer uchun umumiyligini qoida, chunki ular diqqatiga faqatgina noto‘g‘ri yozilgan teglargina emas, balki brauzer nazaridan noaniqlashtirilmagan teglar ham tushib qoladi.

Bu kontekstda ko‘proq parametr atamasini ishlatalamiz. Parametrning qo‘yilgan parametrlari har bir teg uchun alohidadir. Parametrlerning umumiyligini ko‘chirish qoidasi quyidagilardan iboratdir: probel bilan bir-biridan ajratilgan parametrlar teg nomidan keyin kelishi mumkin. Teg parametrlarining tortib ketishi o‘z-o‘zidan ko‘p parametrlar ularning ahamiyatini ko‘rsatishini talab qiladi, lekin bir xil parametrlar buni hal qilish imkoniga ega emas. Agarda parametr ahamiyat talab qilsa, unda u tenglik teigidan, parametr nomidan keyin ko‘rsatiladi. Parametr znacheniyasi qo‘shtirnoq ichida yoki qo‘shtirnoqsiz yozilishi mumkin, qachon-ki, agarda parametr znacheniyasida probel bo‘lsa, albatta qo‘shtirnoq qo‘yiladi.

Parametr znacheniyasida ba’zida registr yozuvini muhim. Tegning parametr bilan bo‘lgan yozuvini misol qilib olamiz:

```
<TABLE BORDER ALIGN=«left»>
```

Bu yerda teg uchun <TABLE> 2 ta parametr buyurilgan. Birinchi parametr BORDER ahamiyatsiz ko‘rsatilgan. Ikkinci parametr ALIGN left znacheniyasiga ega.

### **Teglarning umumiyligini qoidasi**

```
<teg parametr = «znachenie»> ... istalgan matn ... </teg>
```

Zamonaviy HTMLda teg tili va uning mazmunidan tashqari, dastlabki HTML kodida, shuningdek, ssenariy kodlari ham yoziladi (JavaScript yoki VBScript).

HTML haqidagi umumiyligini ma’lumotni tugata turib HTML hujjalari xohlagan matnli muharrirdan foydalangan holda tahrirlash va ko‘rish uchun oddiy matnli fayllarni o‘z ichiga oladi.

## Saytni yaratishda muharrirning tanlovi

Tanlovnii amalga oshirishda muharrir zamonaevi HTML tilini qanchalik qo'llab-quvvatlashligi muhimligiga e'tibor berish kerak. Funksiyalar imkonii boricha turli xilligi dasturning afzalligini bildiradi. Birinchi vaqtda siz bu funksiyadan foydalanmasangiz ham, lekin siz tomondan tanlangan muharrir sizni og'ir ishlarda ham uyaltirib qo'ymaydi. Ko'p dasturlarning web sahfani tahrirlash uchun teglangan asosiy xususiyatlaridan biri bu ularning o'xhashligi va standart shaklida teglanishning, kerakli rejimlarning tezda yoqish uchun klavisha kombinatsiyasining va hujjalarning tuzilish sxema turlarining vazifasini aniqlash imkoniyatidir.

Alohibda dasturlarning imkoniyatlari bilan tanishganda, bu dasturlarning bir-biridan farq qilishini o'nlab parametrlardan topish mumkin. Dasturning ta'minlash bahosi va ahamiyatiga ega ko'pgina HTML muharrirlari va Web saytning boshqa tuzilish va xizmat qilish yordamchi dasturlari bepul va shartli bepuldir.

Har bir web ustasi, hech bo'limganda, bir nechta muharrirlarga baho berishi kerak va o'zi uchun o'ziga munosib qo'llash spetsifikasiga va shaxsiy tanlash imkoniyatiga ega. Hammaga ma'lumki, murakkab portal qurganning va server hamda faylni oddiy yangilanish bilan shug'ullangan kimsalarning talablari juda katta farq qiladi.

Malakali web dizaynerlar kerakli oddiy matnli muharrir uskunasidan tashqari, albatta, hech bo'limganda, bitta kuchli matnli yoki grafik muharririni, CSS jadvali muharriri, orfografiya va sintaksis tekshiruv vositasini (korrektor), grafika retushlarini va yaratish dasturini, shu bilan birga skriptlar yaratish va test qilish uchun asboblarni o'rnatishni maslahat beradilar.

Hozirgi vaqtda bozorda bir necha yaxshi HTML muharrirlari raqobat qiladilar. Bu raqobat dasturning yuqori sifatiga va narxlarning arzonlashishiga imkon beradi.

Quyida web ustalar uchun bir necha mashhur dastur va paketlari (kuchining o'sish tartibida) berilgan:

- *HTML Notepad* – HTML bilan ishslash uchun oddiy yo'qotish funksiyasi;

- *Dream Weaver* – kuchli WYSIWYG muharriri, bir butun sifatda saytning qo'shimcha ishlanma vositasi, skript va appletlar bilan ushlab turuvchi ish funksiyasi.

Interfeys foydalanishning oddiyligi va maxsus bilimlarni minimal talab qilinishi malakali hamda endi boshlovchi Web ustalar uchun bu paket juda katta muvaffaqiyat olib keladi.

Sayt qanday tuzilgan?

Saytni yaratishdan oldin u nimadan tuzilganligini bilish kerak. Brauzerning manzil satrini terganimizda, masalan, www.yandex.ru, siz yandex saytiga tushib qolishingizni bilasiz. Keyin tugmalarni bosib, siz bu resursning bir sahifasidan ikkinchi sahifalariga o'tasiz. Bundan bilasiz-ki, sayt bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan sahifalar to'plash. Saytni qilish, bu degani bir sahifani ikkinchi sahifaga bog'lashdir.

Endi sayt sahifasining o'ziga qaraymiz, masalan, shu ko'rayotgan sahifangiz nimadan iborat? Surat va matndan. Demak, sahifa yaratish uchun unga surat topish kerak va matn terib, brauzerni ko'rsatish kerak.

Ha, asosan, brauzer (Internet Explorer, Firefox yoki biror boshqa) internetda sahifani aks ettiradi. Qanday qilib, u shu sahifa internet uchun ajralganligini bilib oladi? Uning kengligiga qarab – html (masalan, index.txt sahifasi – oddiy matnli sahifa, index.html bu web sahifa). Qanday qilib brauzer, aynan sizning rasmingizni va matnni aks ettirishingizni biladi. Biz uchun razmetka tili – HTML xizmat qiladi. Aynan shuning yordamida siz brauzerga sahifadagi suratni va matnni ko'rsatasiz.

Agar siz dasturlash dunyosidan uzoq bo'lsangiz va til so'zi sizni qo'rqilsa, o'zingizni bosib oling. HTMLni dasturlash tiliga olib borishingiz uncha qiyin emas. U tushunishda oddiy va yengildir. Siz bir necha daqiqada o'zingizning birinchi sahifangizni yaratishda bunga amin bo'lasiz.

## 1 – qadam.


Bloknotni oching (Notepad) va yangi hujjatga quyidagi kodni kiriting:

<html>

```
<head>
<title> Mening birinchi sahifam </title>
</head>
<body>
Hammaga salom!
</body>
</html>
```

## 2 – qadam.

Bu hujjatni saqlab qo‘ying (Fayl → Сохранить как)



Faylingizni saqlash uchun joyni aniqlang (masalan – bu disk D).

Fayl nomi – index.html

Fayl turi – hamma fayl (все файлы)


## 3 – qadam.

Brauzerni yo‘lga qo‘yib (Pusk → Internet Explorer), manzil satrida yaratilgan fayl index.htmlga to‘liq yo‘l ko‘rsating.

Bizda u D diskida saqlanadi, demak, uning to‘liq yo‘li D:\index.html, agarda u web papkasidagi D diskida saqlanganda edi, unda uning yo‘li – D:\web\index.html bo‘lar edi. Boshqa so‘z bilan aytganda, siz hamma papka orqali diskdan faylgacha bo‘lgan yo‘lni ko‘rsatishingiz kerak.

Mana sizning birinchi varag‘ingiz tayyor. Endi bloknotga qo‘ygan kodimizga qaraymiz. Mana shu xohlagan html hujjat strukturasidir. < i > orasida joylashgan hamma narsa teg deb ataladi.

Enter klavishini bosing.



< i > orasida teg nomi va uning parametrlari (agar ular bo‘lsa) joylashgan. Asosan, hamma teglar juftli, ya’ni biri ochiluvchi < >, boshqasi yopiluvchi < / >. Bunday juftlik teglar konteyneri deyiladi. Ular orasidagi joylashgan hammasi konteyner ichidagi bor narsa deyiladi.

Teglar harakatlari ular ichidagi ma’lumotlarda qo‘llaniladi.

Yopiqlikni talab qilmaydigan yakka teglar ham bo‘lib turadi. Bunday teglar aniq harakatga ega bo‘ladi, masalan, satrning tarjimasi yoki suratning qo‘yilishi. Hujjatning tuzilishini batafsil ko‘rib chiqamiz:

- tegda <html> </html> hamma hujjat joylashadi;
- tegda <head> </head> brauzer uchun har xil axborot joylashadi (bu haqida keyinroq ma’lumot beramiz);
- tegda <title> </title> sahifaning sarlavhasi joylashadi (u sahifaning eng yuqorisida ko‘rinadi);
- tegda <body> </body> xohlagan narsangizni joylashtirasiz (surat, matn).

Aytib o’tganimizdek, bu teglar to‘plami xohlagan html sahifasining negizi hisoblanadi. Shuning uchun bloknotda terilgan html ni nusxa qilib, har bir yangi sahifaga qo‘yishingiz mumkin.

### **Html hujjatining tuzilishi**

Html hujjatining tuzilishi uch juft teglardan iborat:

```
<html>
<head>
```

```
Hujjat sarlavhasi
</head>
<body>
Hujjat tanasi
</body>
</html>
```

<html> </html> teglar boshqalar uchun konteyner bo‘lib keladi, ya’ni unda hamma boshqa qolganlar joylashadi. Shunday qilib, sizning hujjatingiz <html>, tegidan boshlanib, </html> tegi bilan tugaydi.

Hujjatning o‘zi shartli ikki qismga bo‘lingan – hujjat sarlavhasi (teglar <body> </body>).

### **Hujjat sarlavhasi – teg HEAD va uning elementlari**

Hujjatning sarlavhasi xizmat axborotini o‘z ichiga olib, hujjat tashqi ko‘rinishiga ta’sir qilmaydi. Uning vazifasiga sizning hujjatingizni qanday qilib brauzer foydalanuvchisiga yoki axborot serveriga taqdim etish kiradi.

#### **Title**

Hujjat sarlavhasining yagona kerakli elementlaridan biri bu <title> </title> teglari bo‘ladi. Ular hujjatga nom berish uchun juda keraklidir, ular brauzerning sarlavha oynasida aks ettiriladi. Masalan, keyingi kodni yozganda:


```
<html>
<head>
<title>Hujjat sarlavhasi</title>
</head>
<body>
Hujjat tanasi
</body>
</html>
```

Hujjatning nazariy nomida u cheksiz uzunglikka ega bo‘lishi mumkin, amalda esa 60 ta ramz bilan chegaralanish tavsiya etiladi.

Brauzer oynasida u shunday ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Title teglarining ichi-dagi ma'lumotni shuverda ko‘rish mumkin

Body teglarining ichi-dagi ma'lumotni sayt-da ko‘rish mumkin



Hujjatning nomi uning ma'lumotiga qarab tavsiflanishi kerak. Teglar ichidagi ma'lumot `<title> </title>` sayt aylanishida va optimizatsiyada oxirgi o‘rinni tutmaydi.

### **Link**

Yakka teg `<link>` tashqi fayllar bilan bog‘lanish uchun kerak. Masalan, agarda siz kaskad jadvali uslubini qo‘llasangiz, unda alohida faylda saqlash qulay va saytning hamma sahifasiga bu faylni bog‘lash kerak.

`<link>` tegida bir necha atributlar bor:

`href` – URL – manzilda bog‘lanuvchi faylni ko‘rsatadi.

`rel` – kerakli hujjatning tashqidagiga munosabat turini ko‘rsatadi (masalan: `rel="stylesheet"` tashqi faylning joriy hujjatning uslubini aniqlashtirishni ko‘rsatadi).

`type` – jadvalda tur va parametrning birlashgan ko‘rinishini ko‘rsatadi.

Kod namunasi:

```
<html>
  <head>
    <title>Struktura html</title>
    <link rel="stylesheet" type="text/css" href="style.css">
  </head>
  <body>
    Hujjat tanasi
  </body>
```

```
</html>
```

### **Meta**

Bu tegdag'i axborot HTML bilan hech qanday aloqaga ega emas, lekin uning qo'llanishi ko'pgina vazifalarni yechish uchun qulay.

### **Script**

`<script></script>` tegi tashqi fayl skriptlarning bog'lanishi uchun qo'llaniladi. Bu sahifa kodlarini optimallashtirishga imkon beradi. Masalan, agarda siz o'zingizning bir necha sahifangizda java script funksiyasini qo'llasangiz, `<script>` tegi orqali bu funksiyalarni alohida sahifaga – `function.js` ga joylashtirishingiz mumkin.

Bu o'qish kodini va sahifani yuklash tezligini oshiradi. Bu teg bir nechta parametrlidir:

*language* – skript yozuvining tilini ko'rsatadi, spetsifikatsiya si HTML 4.0 da berilgan type parametridan foydalanishga maslahat berilmaydi.

*type* – tili uchun MIME tipi ko'rsatadi.

*src* – skriptli tashqi faylga yo'l ko'rsatadi.

Skript manziliga aloqador kod namunasi:

```
<html>
  <head>
    <title>Struktura html</title>
    <link rel="stylesheet" type="text/css" href="style.css">
    <meta http-equiv="Content-Type" content="text/html; charset=windows-1251">
    <meta http-equiv="KEYWORDS" content="teg, html, sahifa sarlavhasi">
    <meta http-equiv="DESCRIPTION" content="sarlavha elementlari yozilishi">
    <script type="text/javascript" src="function.js">
  </script>
  </head>
  <body>
    Hujjat tanasi
  </body>
</html>
```

## Hujjat tanasi – BODY tegi

Web sahifada nima ko'rinsa *<body></body>* tegi oralig'ida joylashadi. Bu matn, rasmlar va boshqa bezash ishlari bo'lishi mumkin.

*<body>* tegida maxsus parametrlar mavjud emas. Vaholanki ko'pgina parametrlar har xil brauzerlar yordamida qo'llaniladi.

Quyida brauzerlarda qo'llaniladigan parametrlarni ko'rib chiqamiz.

*alink* – faol jo'natma rangini yuklaydi. Ayni vaqtda bositganda, uning rangi aktiv jo'natma rangiga o'zgaradi.

*link* – joriy jo'natmaning rangini teglaydi.

*vlink* – qabul qilingan jo'natma rangini yuklaydi, ya'ni hozirgina biz bosganda hosil bo'lgan rangni.

*background* – orqa fonga ishlatilgan tasvirni ko'rsatadi, fon oynaning ko'rindigan qismini egallaydi. Agar tasvir brauzer oynasidan hajmi kichik bo'lsa, unda tasvir bir nechta kichik tasvirlardan iborat mozaika ko'rinishida hosil bo'ladi. Tasvir oralari ko'rindigan darajada ochiq qoladi. Shuning uchun tasvir tanshashga alohida e'tibor berish lozim.

*bgcolor* – hujjatning orqa fon rangini teglaydi;

*leftmargin* – brauzer oynasidan sahifa kontentigacha chap tarafdan joy qoldirish;

*rightmargin* – brauzer oynasidan sahifa kontentigacha o'ng tarafdan joy qoldirish;

*topmargin* – brauzer oynasidan sahifa kontentigacha yuqordan joy qoldirish;

*bottommargin* – brauzer oynasidan sahifa kontentigacha pastdan joy qoldirish;

*text* – butun hujjat uchun matn rangini yuklash.

Kod namunasi:


```
<html>
  <head>
    <title>Teg body html</title> da
    <link rel="stylesheet" type="text/css" href="style.css">
```

```

<meta http-equiv="Content-Type" content="text/
html; charset=windows-1251">
<meta http-equiv="KEYWORDS" content="teg, html, sahi-
fa sarlavhasi">
<meta http-equiv="DESCRIPTION" content="sarlavha ele-
mentlari yozilishi">
<script type="text/javascript" src="function.js">
</script>
</head>
<body bgcolor="khaki" leftmargin="100" topmargin="50"
rightmargin="50" bottommargin="50" text="gray" alink="red"
vlink="green">
    Oddiy matn
    <br>
    <a href="index.html">sahifaga jo‘natma index.html</a>
    <br>
    <a href="map.html">sahifaga jo‘natma map.html</a>
</body>
</html>

```

Brauzer oynasida bu tarzda ko‘rinadi:



Har qanday html hujjat quyidagi ketma-ketlikdan iborat teglardan tuzilgan:

```

<html>
<head>

```

```
<title> </title>
</head>
<body> </body>
</html>
```

## Matnni formatlash

Matn sarlavhasini qiladigan teglar:

```
<h1></h1>
<h2></h2>
<h3></h3>
<h4></h4>
<h5></h5>
<h6></h6>
```

Bu teglar matnni sarlavha ko‘rinishida ajratadi. Ya’ni har bir sarlavha yangi satrdan teglanadi va u bo‘rttirilgan shrift bilan ajratilgan hamda o‘zining o‘lchamiga ega (eng kattasi – birinchi darajali sarlavha, eng kichigi esa oltinchi).

Bu teglar gorizontal to‘g‘rilanish *align* parametri bilan qo‘llanilishi mumkin. Bu parametrлarning imkonli ahamiyati:


- *left* – chapdan,
- *right* – o‘ngdan,
- *center* – markazdan,
- *justify* – kenglikdan.

Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>formatlash html</title>
</head>
<body>
<h1>bu birinchi pog‘ona sarlavhasi</h1>
<h2>bu ikkinchi pog‘ona sarlavhasi</h2>
<h3>bu uchichi pog‘ona sarlavhasi</h3>
<h4 align="right">bu to‘rtinchi sarlavha pog‘onasi</h4>
<h5 align="center">bu beshinchi sarlavha pog‘onasi</h5>
```

```
<h6 align="justify">bu oltinchi sarlavha pog'onasi</h6>
    Bu oddiy matn
</body>
</html>
```

Brauzer oynasida bu shunday ko'inishga ega bo'ladi:



Xat boshiga bo'lingan teglar va sahifalarning o'tkazilishi:  
*<br>* – satrning majburiy tarjima tegi. Bu tegdan keyin matn yangi satrdan boshlanadi;

*<p></p>* teglari matnlarning xat boshida bo'ladi. Har bir xat boshida oldin *<p>* tegini joylashtirish kerak, yopiluvchi teg shart emas. *<br>* tegidan farqli o'laroq xat boshi bir-biri bilan bo'sh satrlar bilan farq qiladi;

*<p>* tegida align parametri bo'lib, paragraf ichida matnni tekislash usulini topshiradi.


Bu parametrning imkonli ahamiyati:

- *left* – chapdan,
- *right* – o'ngdan,
- *center* – markazdan,
- *justify* – kenglikdan.

Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
<p align="left">Bu xat boshi matndan butkul uzoqda bo‘lib,
baland va pastdan bo‘sh satrlar bilan ajratilgan va chap chek-
ka tarafdan </p> to‘g‘rilangan.
<p align="right"> Bu xat boshi matndan butkul uzoqda bo‘lib,
baland va pastdan bo‘sh satrlar bilan ajratilgan va o‘ng chek-
kadan </p> to‘g‘rilangan.
<p align="center"> Bu xat boshi butun matndan uzoqlash-
gan bo‘lib, yuqori va pastdan bo‘sh satrlar bilan ajratilgan hamda
markazdan </p> to‘g‘rilangan.
Bu oddiy matn. <br> Bu matn yangi qatordan.
</body>
</html>
```

Brauzer oynasida bu shunday ko‘rinishga ega:



### Kursivda ajralib turuvchi matn teglari

```
<cite></cite>
<dfn></dfn>
<em></em>
```

Bu teglar matnni kursiv bilan ajratib turadi, lekin buni ular har xil sabablarga ko'ra qiladilar:

<cite></cite> tegi kitob, maqola va sitatalarning nomlarini mantiqiy ajratish uchun qo'llaniladi;

<dfn></dfn> tegi ta'riflarni ajratish uchun qo'llaniladi;

<em></em> va <i></i> teglari matnning asosiy lavhalarini ajratib ko'rsatadi. Oxirgilari foydalanishga maslahat berilmaydi.

Kod namunasi:


```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
<cite>
Bu matn cite teglarida
</cite><br>
<dfn>
Bu matn dfn teglarida
</dfn><br>
<em>
Bu matn em teglarida
</em><br>
<i>
Bu matn i teglarida
</i>
</body>
</html>
```

### **Matnning bo'rttirilgan shriftda ajratib turuvchi teglar**

```
<strong></strong>
<b></b>
```

Ikkalasi ham matn fragmentini ajratish uchun foydalaniladi, lekin birinchisidan foydalanish qulay.


Brauzer oynasida bu shunday ko'rinishga ega:



Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
<br>Oddiy matn
<strong>
Bu matn strong teglarida
</strong><br>
<b>
Bu matn b teglarida
</b>
</body>
</html>
```

Brauzer oynachasida bu quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



## **Matnning tagiga chizish orqali ajratib turuvchi teglar**

<ins></ins>


<u></u>

Ikkalasi ham matndagi muhim qismlarni teglash uchun xizmat qiladi. Lekin birinchisidan foydalanish afzalroqdir.

Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
Shunchaki matn<br>
<ins>
Bu matn ins tegida
</ins><br>
<u>
Bu matn u tegida
</u>
</body>
</html>
```

Brauzer oynachasida bu quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:



## **Matnning yuqori va pastki indekslariga chiqaradigan teglar**


<sub></sub> teglari matnning satr chizig‘idan pastga, maydalashgan shriftda tushiriladi.

<sup></sup> teglari matnning satr chizig‘idan yuqoriga, maydalashgan shriftda ko‘tarib beradi.

Matematika va kimyoviy formulalarini chiqarish uchun qulay.  
Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
y=x2 – parabola tenglamasi <br><br>
H2O – suv formulasi.
</body>
</html>
```

Brauzer oynachasida bu quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:



### **font tegi va uning parametrlari**

*<font></font>* teglari matn shrifti parametrlarini ko‘rsatadi:

*face* – shrift nomi. Shrift nomlarining bir nechtasini vergul orqali berish mumkin. Bunda birinchi ko‘rsatilgan shrift nomi topilmasa (bilmaysiz-ku, foydalanuvchi kompyuterida qanday shriftlar o‘rnatalgan), brauzer berilgan nomlarni tartibi bilan ishlatib ko‘radi.

*size* – kelishilgan birlikda 1 dan 7 gacha bo‘lgan shrift o‘lchamlarini ko‘rsatadi.

*color* – shrift rangi (odatiy qora)

Rang berishning ikki usuli mavjud: 16 xonali ranglar nomi va ko‘rsatkichlari berilgan kod yordamida. Alovida ranglarning nomi yordamida (ular 156 ta) juda oddiy, o‘zingizga yoqqan rangni tanlaysiz va rang nomini parametr ko‘rsatkichiga yozasiz (masa-

lan, color="blue"). Barcha brauzerlar ham ranglar nomini tu-shunmasligini unutmang.


Lekin rang tanlashda ikkinchi usul ko'proq imkoniyat bera-di. Bunda biz 16 tali kod yordamida million rang ichidan kerak-li rangni tanlab olish imkoniga ega bo'lamiz. Bu kod 6 ta raqam-dan iborat bo'lib, "#" tegi bilan boshlanadi.

Rang kodini qanday kelib chiqishi haqida to'xtalib o'tmaymiz, balki bu ranglarni Photoshop dasturi yordamida olish mumkin-ligini ko'rsatamiz.

Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
Bu oddiy matn.<br>
<font face="Verdana" size=5 color="red">
Bu matn qizil rangda, 5-o'lchamda.
</font><br>
<font face="Arial" size=2 color="blue">
Bu matn ko'k rangda, o'lchami 2.
</font>
</body>
</html>
```

Brauzer oynachasida bu quyidagi ko'rinishga ega:



## **Center tegi**

`<center></center>` tegi barcha elementlarni brauzer oynacha-sining markazida tekislash uchun xizmat qiladi.

Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>Formatlash html</title>
</head>
<body>
    Bu oddiy matn
    <center>Markazga tekislangan matn </center>
</body>
</html>
```

## **del, strike, s teglari**


`<del></del>` teglari matn tagiga chizib beradi. `<strike></strike>` teglari va `<s></s>` teglari analogik bo'lib, lekin ulardan HTML 4.0. Maxsus spetsifikatsiyada foydalanish tavsiya etilmaydi.

Kod namunasi:

```
<html>
<head>
<title>hujjat nomi</title>
</head>
<body>
    <del>
        Bu matn del teglarida
    </del><br>
    <strike>
        Bu matn strike teglarida
    </strike><br>
    <s>
        Bu matn s teglarida
    </s>
</body>
```

```
</html>
```


Brauzer oynachasida bu quyidagi ko‘rinishga ega:



### q tegi

*< q > </ q >* teglari qisqa sitatalarni teglaydi. Internet Explorer dan tashqari barcha brauzerlarda qo‘shtirnoq ichida ifodalanadi.

Brauzer oynasida u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.



Kod namunasi:

```
<html>  
<head>  
<title>hujjat nomi</title>  
</head>  
<body>
```

Linkoln gapirishni yoqtirar edi:

```
<q> maqsadidan kechganlar maqsadiga yetisha olmaydilar  
</q>  
</body>  
</html>
```

### **hr tegi**

*<hr>* tegi yuqori va pastdan bo'sh satr qoldirib, gorizontal chiziq chizadi: bu teglarning quyidagi parametrlari mavjud:

*align* – chiziqni markazga tekislaydi (center), chapdan (left) yoki o'ngdan (right).


*width* – oynacha kengligiga ko'ra yoki piksellarda chiziq uzunligini o'rnatadi.

*size* – chiziq qalinligini piksellarda o'rnatadi.

*color* – chiziq rangini o'rnatadi.

*noshade* – chiziq relyefini yo'qotadi.

Brauzer oynachasida bu quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:



Kod namunasi:

```
<html>  
<head>  
<title>hujjat nomi</title>  
</head>  
<body>  
Parametrsiz chiziq  
<hr>
```

Markazdagi chiziq  
<hr align="center" color="red" size=2 width=50%>  
Chapdan chiziq  
<hr align="left" color="blue" size=3 width="150">  
</body>  
</html>

### **Teglardan birgalikda foydalanish**

Biz matnni formatlashdagi asosiy teglar bilan tanishdik, lekin sizga matndagi biron-bir so‘zni bo‘rttirilgan qizil rangli kursivda yozish kerak bo‘lsin. Buning uchun siz strong, font va em teglarni birgalikda qo‘llaysiz. Muhimi teglarni berilgan tartibda joylashtirish. Birinchi ochilgan teg oxirgi bo‘lib yopiladi.

Misolda ko‘ramiz:

“Matn” so‘zini qizil rang bilan ajratamiz:

<font color="red">matn</font>

Endi kursiv teglarni qo‘shamiz (chapdan ochadigan, o‘ngdan yopadigan):

<em><font color="red">matn</font></em>

Endi yarim qalinashtirilgan chiziq tegi:

<strong><em><font color="red">matn</font></em></strong>

Har gal yuqoridagi teglarni biz yangidan joylaymiz. Mana shu jarayon “joylash tartibi” deb nomlanadi.

Matnni bezash uchun teglardan foydalanishingiz mumkin, muhimi joylash tartibi buzilmaligi lozim.

### **Sayt uchun HTMLning maxsus kod va teglari**

<h1></h1> teglari qachon boshqaruvchi bo‘lganini, ya’ni matnni sarlavha qilishini, yana qachon ularni shunchaki matn ko‘rinishida yozish kerak degan savol tug‘iladi.

